



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

RELATIONS BETWEEN AFGHANISTAN AND IRAN: COMMON ROOTS AND MODERN PATHS OF DEVELOPMENT

Istamova Dilnura Zafar kizi
Faculty of International Journalism,
3rd Year Student of the International Relations Department.
Uzbek State University of World Languages
Tel:+998504550304, dilnuraistamova9@gmail.com

Abstract

This article describes the long history of relations between Afghanistan and Iran. It analyzes the historical stages of development of political, economic, and geopolitical relations between the two countries and highlights how cultural affinity, religious factors, water resources, and security issues have influenced the formation of relations.



In addition, problematic situations that have arisen between the two countries and how they have been resolved are also mentioned.

Keywords: Terrorism, SCO, UN, UNHCR, OIC.

Introduction

AFG‘ONISTON VA ERON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR: UMUMIY ILDIZLAR VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘LLARI

Istamova Dilnura Zafar qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.
Tel:+998504550304, dilnuraistamova9@gmail.com

 WORLD BULLETIN PUBLISHING <small>Online Publishing Hub</small>	<h1>World Bulletin of Education and Learning (WBEL)</h1>
ISSN (E): 3072-175X	Volume 2, Issue 4, April 2026
	This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution
https://worldbulletin.org/index.php/1	

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Afgʻoniston va Eron munosabatlarining uzoq oʻtmishdagi tarixi haqida bayon etilgan. Bu ikki davlat oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy, hamda geosiyosiy munosabatlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan hamda aloqalarning shakllanishiga madaniy yaqinlik, diniy omillar, suv resurslari va xavfsizlik masalalari qanday taʼsir koʻrsatgani yoritilgan. Bundan tashqari, ikki davlat oʻrtasida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar va ularning qanday yechim topganligi ham keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: terrorism, ShHT, BMT, Qochqinlar agentligi, IHT

АННОТАЦИЯ

В статье описывается долгая история отношений между Афганистаном и Ираном. Анализируются исторические этапы развития политических, экономических и геополитических отношений между двумя странами, а также освещается влияние культурной близости, религиозных факторов, водных ресурсов и вопросов безопасности на формирование этих отношений.

Кроме того, упоминаются проблемные ситуации, возникавшие между двумя странами, и пути их разрешения.

Ключевые слова: терроризм, ШОС, ООН, УВКБ ООН, ОИС

KIRISH

Afgʻoniston va Eron oʻrtasidagi munosabatlar Markaziy va Janubiy Osiyoning geosiyosiy manzarasida muhim oʻrin tutadi. Bu ikki davlat tarixiy ildizlar, madaniy meros, diniy yaqinlik hamda geografik qoʻshnichilik aloqalari bu davlatlarning oʻzaro aloqalarini shakllantirgan omillar hisoblanadi.

Bugungi kunda Afgʻoniston va Eron oʻrtasidagi aloqalar faqat tarixiy yoki madaniy omillar bilan cheklanmay, balki mintaqaviy xavfsizlik, terrorism, narkotrafik, suv resurslari va migratsiya kabi global muammolar bilan ham chambarchas bogʻlangan.



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

Ayniqsa, 2021-yilda Tolibonning hokimiyatga qaytishi bilan ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yangi bosqichga kirdi. Eronning Afg'onistonga nisbatan ehtiyotkor, ammo faol siyosati mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, Eron afg'on mojarosining hal qilinishida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning faoliyatini ham qo'llab quvvatlaydi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Eron afg'on muvaqqat hukumatini ham Homid Karzay boshchiligida birinchilardan bo'lib tan olgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bilamizki, Afg'oniston davlati qadimdan murakkab xarakterga ega davlat hisoblanadi. Eron bilan bu davlat tarixan umumiy ildizlarga ega davlat hisoblanadi.

Eron va Afg'oniston o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish borasida ikki davlat prezidentlari tomonidan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining Bokudagi (2006-yil) sammitida, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (ShHT) Shanxay (2006-yil), Toshkent (2010-yil) va Astanadagi (2011-yil) yig'ilishlarida, mamlakat rahbarlarining forsiyzabon davlatlar uchrashuvida Dushanbe (2006-yil) kengashida hamda BMT Bosh assambleyasining Nyu-Yorkdagi (2006-yil) yig'ilishlari doirasida bo'lib o'tgan o'zaro uchrashuvlarida kelishib olingan edi.¹ Eron asosan, Afg'onistondagi shia hazoralariga e'tibor qaratadi va mujohidlar harakatini qo'llab quvvatlaydi.

Bu ikki davlat o'rtasida muammo kelib chiqishiga sabab bo'lgan muammolardan biri Helmand daryosi suvi inqirozi hisoblanadi. Ikk davlat o'rtasida bu shartnoma 1973-yilda imzolangan va bu shartnomaga ko'ra Eron har yili 820 million kub metr suv olish huquqiga ega. Ammo toliblar shartnoma shartlariga zid holda suv oqimini kamaytirganligi sababli, davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'ldi.

¹ Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 344 b.

 WORLD BULLETIN PUBLISHING Online Publishing Hub	<h1>World Bulletin of Education and Learning (WBEL)</h1>
ISSN (E): 3072-175X	Volume 2, Issue 4, April 2026
	This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution
https://worldbulletin.org/index.php/1	

Eron Afg‘oniston davlati vositachiligida Rossiya va Xitoy davlatlari bilan ham hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ymoqchi hamda shia madaniyati va muhojirlar oqimini qo‘llab quvvatlash orqali o‘zining “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, Eronning Afg‘onistonga 2001-2021-yillar oralig‘idagi investitsiyalari 900 million AQSh dollaridan oshdi.

Eronning tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri bu, 1979-yilda Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga kirishi bo‘ldi. Bu paytda Tehron sovet qo‘shinlariga qarshi kurashayotgan afg‘on mujohidlariga yordam berdi lekin asosan shia hazoralari guruhlariga yordam bergan edi.

Urush natijasida Eron hududiga 3 milliondan ortiq afg‘on qochqini keldi. BMT Qochqinlar agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda Eron hududida 2,1 million afg‘on muhojiri yashaydi, ularning 780 ming nafari ro‘yxatdan o‘tgan qochqin maqomiga ega.² Bu holat Eron iqtisodiyoti va ijtimoiy infratuzilmasida bosim paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Tarixga nazar tashlasak, 1996-2001-yilgi Tolibon davrida Eron va Afg‘oniston munosabatlari yaxshi bo‘lmagan va toliblarning yuritayogan siyosatini “ diniy ekstremizmning eng xavfli shakli” deb atagan. 1998-yilda Tolibon tomonidan Eron konsulligi vakillari o‘ldirilgan va bu voqea urush tahdidini keltirib chiqardi.

Asosan, Eronning Afg‘onistondagi ta’siri uch asosiy omil bilan belgilanadi:

1. Xavfsizlik muammolari va narkotrafikka qarshi kurash.
2. Iqtisodiy manfaatlar- Chobahor poti va Zohidon-Herat temiryo‘li orqali Markaziy Osiyo bozorlariga chiqish.
3. Madaniy ta’sir- Fors tili va shia madaniyatini targ‘ib qilish orqali “yumshoq kuch” strategiyasini davom ettirish.

Xitoy va Rossiya bilan hamkorlikda Eron Tolibon bilan muloqotda “vositachi kuch” sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga intilmoqda.³ Bundan tashqari har yili 300 tonnadan ortiq afg‘on opiumining Eron orqali olib o‘tilishi bu ikki davlat o‘rtasidagi vaziyatni murakkablashtirmoqda.

² UNHCR. (2024). Global Report on Afghan Refugees in Iran. Geneva: United Nations High Commissioner for Refugees.

³ Katzman, K. (2022). Iran’s Foreign and Defense Policies. Congressional Research Service Report, Washington D.C.

 WORLD BULLETIN PUBLISHING <small>Online Publishing Hub</small>	<h1>World Bulletin of Education and Learning (WBEL)</h1>
ISSN (E): 3072-175X	Volume 2, Issue 4, April 2026
	This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution
https://worldbulletin.org/index.php/1	

Bugungi kunda Eron uchun Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash, suv resurslarini adolatli taqsimlash va chegara xavfsizligini mustahkamlash strategik ustuvorlik sanaladi. Tolibon bilan ehtiyotkor diplomatiya olib borish orqali Eron o‘z manfaatlarini himoya qilish bilan birga, mintaqaviy ta’sirini saqlab qolishga intilmoqda.

XULOSA

Afg‘oniston va Eron o‘rtasidagi munosabatlar tarixan bog‘langan va ko‘p qirrali tabiatga ega. Bu davlatlar o‘rtasidagi aloqalar qadimdan madaniyat, din va til omillariga tayangan lekin hozirgi davrdagi aloqalar, siyosiy tizimdagi tafovutlar vaziyatni murakkablashtirmoqda.

Shunday qilib, Afg‘oniston va Eron o‘rtasidagi munosabatlar o‘tgan asrlardagi tarixiy yaqinlikdan tortib, XXI asr geosiyosiy realliklarigacha bo‘lgan davrda har ikki mamlakatning tashqi siyosatida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ularning o‘zaro munosabatlari nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy barqarorlik, xalqaro xavfsizlik va Markaziy Osiyodagi geoiqtisodiy tizimning kelajagini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Afg‘oniston tarixi., O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta ta’lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg‘oniston tarixi o‘quv qo‘llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.
2. UNHCR. (2024). Global Report on Afghan Refugees in Iran. Geneva: United Nations High Commissioner for Refugees.
3. Katzman, K. (2022). Iran’s Foreign and Defense Policies. Congressional Research Service Report, Washington D.C.